

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi


Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

2006-yil 23 - 29 - oktabr N:43 (66584)

Muassislar:

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar ijtimoiy harakati,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Bu tengdoshingizning nomi siz sportsevar bolalarga juda yaxshi tanish bo'lsa kerak-a? Chunki u kuni kecha Moskvada yoshlar o'rtasida o'zbek kurashi bo'yicha bo'lib o'tgan jahon birinchiligida qatnashib, dzyudo turidan jahon chempioni bo'lib qaytdi. Bunday nufuzli musobaqadagi muvaffaqiyati bilan yurtimiz bayrog'ining yana bir bor g'olibona hilpirashiga sababchi bo'lgan umidli yosh sportchimizni biz ham samimiy qutladik, hamsuhbat bo'lib, taassurotlari bilan o'rtoqlashdik:



Insonning biror sohaga yoki kasbga mehr qo'yishiga kimdir, nimdadir sababchi bo'ladi, deganlari rost ekan. Bolaligimda belbog'li kurash turi bilan shug'ullanadigan polvon tog'am Shokir Shomalikovning ortlaridan sira qolmasdim.

Ularning har bir bellashuvlari, harakatlarini diqqat bilan kuzatardim. G'alaba qozonsalar, xuddi o'zim g'olib chiqqandek qichqirib chapak chalardim. Ayniqsa, yurtboshimizning birinchi sovrini - «Neksiya» avtomashinasini qo'lga kiritganlarida, quvonganimni bir ko'rsangiz edi...

Mendagi bu ishtiyoqning shunchaki o'tkinchi havas emasligini payqagan dadam 9 yoshimda «Dinamo» sport majmuasiga yetaklab kelib, «eti sizniki, suyagi bizniki» deya ustozim, sambo bo'yicha jahon chempioni Ravshan aka Ahmedjonovning qo'lga topshirib ketgan kunlarini hecham unutmayman. Qarasam, yoshi ham, gavdasi ham mendan ancha katta bolalar shug'ullanishyapti. Shunda qalbmida, eplab ketarmikanman-a, degan ikkilanish hissi ham paydo bo'lgandi.

«Yengilgan kurashga to'yimas» degan iborani mendaylarga nisbat qilishsa kerak... Bellashuvlardagi mag'lubiyatim meni g'alabaga ruhlantiradi, desam ishonavering. Ustozim ham bu fe'limni payqaganmilar, ko'proq katta yoshli bolalar bilan gilamga tushirardilar...

Bu orada talaygina musobaqalarda qatnashdim, ozmi-ko'pmi yutuqlarga ham erishdim. Har bir musobaqam men uchun hayot maktabini o'tardi. 1988-yilda bo'lib o'tgan birinchi musobaqam - shahar birinchiligida 3-o'rinni olganman. Bir oygina mashq qilib, gilamga tushgandim. Erishgan natijamdan unchalik ko'nglim to'lmasa-da, sportchi tinimsiz mashq qilishi, mashaqqatlardan cho'chimasligi, o'z

ustida ko'proq ishlashi lozimligini o'shanda anglagandim.

2005-yilda Antaliyada yoshlar o'rtasida bo'lib o'tgan jahon kubogida 2-o'rinni olganimda ham, to'g'risi, unchalik quvonmaganman. Sababi, ustozim sportning sambo, kurash, dzyudo turlari bo'yicha sakkiz karra jahon chempioni Akobir Qurbonov, «2-, 3-o'rinnlarni olsang,

Yana bir chempion!

mening yonimga kelmagin», deganlar va shu bir og'iz gaplari bilan faqat g'alabaga intilib yashashni o'rgatganlar. Ustozning yonlariga yorug' yuz bilan borish esa menga yaqinda nasib qildi...

-Nazarimda, sportchi bolalar boshqa tengdoshlaridan ajralib turadigandek. Tashqi ko'rinishi, ichki olami, fe'l-atvori jihatdan ham. Bir so'zli, qat'iyatliroq, o'ziga ishongan bo'lishadimi-yey. Bu sportning ta'sirimi?

-Albatta, yana bir narsani qo'shimcha qilgan bo'lardim: ular yoshlikdanoq sog'lom turmush tarziga o'rganishadi. Nafaqat tengdoshlari, balki o'qituvchilari orasida ham o'ziga yarasha hurmati bo'ladi. Shundanmi, o'rtoqlarim mening oldimda ichishmaydi, chekishmaydi ham.

-Sport hayotingiz mazmuni

bo'ladimi?

-Kelajakda kattalar o'rtasida jahon chempioni, olimpiada chempioni bo'lishni orzulayman. Sport esa kelgusi hayotimda, mehnat faoliyatimda bir trampoline vazifasini o'taydi.

-Aytaylik, mohir sportchi bo'lib yetishdingiz. Agar sizga chet elda qolishni taklif qilishsa...

-Bunday taklifni hozirdanoq qilishdi. Har gal Moskvadagi musobaqalarga borganimda, shunday taklif kiritishadi. Chet ellarda shartnoma asosida ma'lum muddatga ishga taklif qilishsa, ko'ngan bo'lardim. Lekin butunlay ketishga hecham rozi bo'lmayman.

-Chet eldagi nufuzli musobaqadan qaytdingiz. Nimalarni his qilaisiz?

-Samolyotdan tushganim hamonoq nigohim bilan meni intizorlik bilan kutayotgan ota-onamni, opa-ukalarimni izlayman. Ularning mamnun chehralarini, ayniqsa, onajonimning mehr va faxr bilan boqib turgan ko'zlarini ko'rib, yuragim taskin topadi. Keyin esa ona yurtim havosidan to'yib-to'yib nafas olaman...

Shohruhbekning sport sohasida qo'lga kiritgan ulkan yutuqlarini eshitib bir quvongan bo'lsak, buguni, ertasi haqidagi teran fikrlari, beg'ubor orzularini tinglab, boshimiz ko'kka yetdi.

Bugunning bolasi bo'lsa, shunchalik bo'ladi-da, deb qo'ydim ohista shivirlab.

Feruza JALILOVA suhbatlashdi.

Aziz bolajonlar, o'qing, havas qiling, darsxonangizning ko'rinarli yeriga ilib qo'ying. Siz ham ulardek bo'lishga intilib yashang.

SPORT TRAMPLIN BO'LADI...



Suratdagi buxorolik qizaloqlar Oadinabonu va Azizabonular maktabga endigina qadam qo'yishdi, Oqilabonu esa hali bog'chaga qatnaydi. Shunday bo'lsa-da, o'qish-yozishni juda yaxshi bilishadi. Mehribon buvijonlari ularni allaqachon «Tong yulduzi» gazetasiga obuna qilib qo'yishibdi.

-Endi yil davomida miriqib gazeta o'qiydigan bo'ldik-da,-deyishyapti ular...

Xo'sh, siz-chi aziz bolajonlar, sevimli nashringizga obuna bo'lishni unutmadingizmi?

Xorazm viloyatining Urganch shahridagi qator mahallalarda bolalar sport majmualarining qad rostlashi sportsevar bolajonlar uchun ajoyib sovg'a bo'ldi. Bu majmualar Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi respublika «Bolalar sportini rivojlantirish» jamg'armasi hamda mahalliy tadbirkorlar mablag'i evaziga qurilayapti. Shuningdek,

bolalarni ommaviy sportga jalb qilish maqsadida viloyat markazidagi «Pahlavon

XORAZMDAN XUSHXABAR

Mahmud» nomli tennis majmuasi qayta ta'mirlanmoqda. Bu yerda ko'p sonli o'rindiq'larga ega katta yopiq sport saroyi vujudga keladi. Viloyat rahbarining sa'y-harakatlari bilan har bir tumanda gimnastika markazlarini barpo etish ko'zda tutilmoqda. Qishloq joylarda sport bilan shug'ullanuvchi yoshlar soni tobora ko'paymoqda. Bu borada o'sha hududlarda qurilib foydalanishga topshirilayotgan bolalar sport majmualari, maktablardagi sport zallari, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishga ixtisoslashtirilib, qayta rekonstruksiya qilingan inshootlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xonqa tumanidagi «Sarapoyon», Bog'ot tumanidagi «Xo'jalik», Xazorasp tumanidagi «Muxomon», Urganch tumanidagi «Anjirchi»

qishloqlarida qurilgan zamonaviy tipdagi bolalar sport majmualari qishloq yoshlarining sevimli maskaniga aylanib ulgurgan. Birgina «Anjirchi» qishlog'idagi majmuada «Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi» hisobidan 160 mln. so'mlik qurilish ishlari olib borildi. Uni sport anjomlari

bilan ta'minlash maqsadida esa yana 25 mln. so'mlik mablag' yo'naltirildi. Bunday xayrli ishlar yoshlarimizni kelajakda jismonan baquvvat va kuchli bo'lib yetishishlari uchun xizmat qilishi shubhasiz.

Po'latbek BEKMETOV.



Xorazm Ma'mun akademiyasi tashkil etilganligining 1000 yilligiga

(Davomi. Boshi o'tgan sonda.)

Akademiyaga rahbarlik qilgan Abu Rayhon Beruniy fanning deyarli barcha sohalari bilan shug'ullangan va o'z tadqiqotlari, asarlari bilan olimlarga ibrat bo'lgan. Uning geodeziya va matematika sohalari bo'yicha yozib qoldirgan asarlari bugungi kunda ham olimlarning qo'lidan tushmayotir. «Tarbiyaviy ilmning otasi» deb nom olgan Beruniy O'rta Osiyoda birinchi bo'lib tibbiyotga oid «Kitob assaydana fit-tib» (Tabobatda dorishunoslik kitobi) asarini yozib, ko'pchilikni lol qoldirgan. U Amerika qit'asi mavjudligini yevropalik olimlardan taxminan 450 yil ilgari aytib o'tgan. Bu haqda atoqli shoirimiz Abdulla Oripov shunday yozgandi:

Ko'z oldimdan kechar asrlar,
Ko'z-ko'z etib nuqsu chiroyin.
Sarson o'tgan necha nasllar,
Topolmasdan tug'ilgan joyin.
Amerika-sehrli diyor,
Uxlar edi Kolumb ham hali.
Dengiz ortin yoritdi ilk bor,
Beruniyning aql mash'ali.
Kolumbda bor alamim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Olim o'zining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida qadimiy xalqlar yunonlar, eroniylar, so'g'diylar, xorazmiylar va boshqalarning yil hisoblari, bayramlari va mashhur kunlari urf-odatlariga oid qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan.

Ma'mun akademiyasining yana bir mashhur qomusiy olimi Ibn Sino o'zining «Tib qonunlari» asari bilan dunyoga tanilgan va «Tabobatning otasi» degan nom olgan. Xorazmda u yana matematika va astronomiya bilan ham shug'ullangan.

Ibn Sino xorazmshohlar vaziri Abul Husayn as-Sahiy bilan do'stlashib, unga atab al kimyoga oid «Risola al-Iksir» («Iksir haqida risola») asarini yozgan.

Shunday mashhur olimlar jamuljam bo'lgan Ma'mun akademiyasining shiori «Ilm-fan kishilar hojatini chiqarmoqdir» degan kalom bo'lgan.

Beruniy qayd etishicha, qadimda Xorazm astronomlari yulduzlar joylashish tartibini arablardan ko'ra yaxshiroq bilishgan. Ulug'bek astronomiya maktabining kamol topishida Xorazm Ma'mun akademiyasining roli beqiyos bo'lgan. Bu yerda Abu Nasr ibn Iroq, Beruniy va Chag'moniylarning astronomiyaga oid asarlari darslik sifatida o'qitilgan.

Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlarining shuhrati butun olamga yoyilgan. Ma'mun ibn Ma'mun (Ma'mun II)ning ham shon-shuhratni oshirgan. Bunday katta shon-shuhratni qo'shni mamlakat podshohi Mahmud G'aznaviy aslo ko'rolmagan. U tomonidan pinhoni uyushtirilgan suiqasd natijasida o'z kuyovi bo'lmish Ma'mun II o'ldirilgan. Mahmud G'aznaviy kuyovi uchun qasos olish bahonasida Xorazmga bostirib kirgan va mamlakatni talon-taroj qilgan. Shu bilan Xorazm Ma'mun akademiyasi ham tugatilgan. U ko'pchilik olimlarni zo'rlik bilan G'aznaga olib ketgan.

Xorazm Ma'mun akademiyasi faoliyati (1004-1017-y) qisqa davr bo'lsa-da, dunyoda o'rta asrlar ilmiy va madaniy hayotida o'ziga xos yorqin iz qoldirdi. Akademiya rahbari Beruniyning geodeziya va matematikaga oid ilmiy asarlari, Ibn Sinoning «Tib qonunlari»

hamon o'z kuchini, ahamiyatini yo'qotmagan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach insoniyat tarixidagi ilk ilmiy akademiyalardan biri sifatida e'tirof etilayotgan Xorazm Ma'mun akademiyasi ham Prezidentimiz Islom Karimovning tashabbusi va maxsus Farmoni bilan 1997-yil 11-noyabrda qayta tiklandi. Hozirgi kunda ko'hna va hamisha navqiron shahar Xivada faoliyat yuritayotgan Akademiyada 2ta fundamental va 8ta amaliy dasturlar bo'yicha 57 nafar xodim, shu jumladan, ikki akademik (o'rindoshlik yo'li bilan) 11ta fan doktori va 28ta fan nomzodi ilmiy izlanishlar olib borishmoqda. Ular xalqaro ilmiy dastur va grantlar, xorijiy davlatlar ilmiy markazlari bilan mustahkam o'zaro aloqalar o'rnatishgan. Ayniqsa, Fransiya, Germaniya, Belgiya, Janubiy Koreya, Rossiya, Ozarbayjon, Qirg'iziston ilmiy muassasalari, olimlari bilan yo'lga qo'yilgan uzviy aloqalarni alohida ta'kidlash joiz.

Xorazm Ma'mun akademiyasi raisi, fizika-matematika fanlari doktori, akademik Azimboy Sa'dullayev rahbarligida ilmiy jamoa katta to'yga qizg'in tayyorgarlik ko'rmoqda. Arxeologiya, tarix, falsafa, til va adabiyot bo'limlarining olib borayotgan keng qamrovli ilmiy ishlari tahsinga loyiq. Biologiya muammolari bo'limi olimlari esa vohani yanada gullab-

yashnashi, Xorazmning qadimdan dunyoga mashhur Zazorasp olmalari, qovunlari, nashvatlarining qadimiy navlarini qayta tiklash, paxta va sholining yanada hosildor navlarini yaratish ustida tinmay izlanmoqdalar.

YUNESKO qarori bilan Xorazm Ma'mun akademiyasi tashkil etilganligining 1000 yilligi

dunyo miqyosida keng nishonlash boshlandi. Parijda boshlangan yubiley tadbirlari Xivada davom etadi. Ana shu qutlug' sana arafasida mamlakatimizga tashrif buyurgan YUNESKO Bosh direktori Konchiro Masura Xivada ham bo'lib, Ma'mun akademiyasining bir necha ilmiy laboratoriyasi faoliyati bilan tanishdi, akademiya muzeyining ochilishida ishtirok etdi.

– Ma'mun akademiyasidan olgan taassurotlarim kutganimdan ham ziyoda bo'lib chiqdi,– dedi Konchiro Masura. Yaxshi ma'lumki, dunyoda bundan ming yil avval paydo bo'lgan olimlar hamjamiyati shunday – Ma'mun akademiyasi, deb atalgan. Bugun O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan zamonaviy ilmiy markaz ham shunday ataladi. Undagi tadqiqotlar porloq kelajak sari yo'naltirilgan. Bu markaz ham qadimiy an'analarni, ham hozirgi zamon ilm-fan yutuqlarini izchil davom ettirmoqda. Uning ming yillik shonli to'yini nishonlashda YUNESKO ham ishtirok etayotganidan biz faxrlanamiz.

...Xorazm Ma'mun akademiyasiga tamal toshini qo'ygan Abu Nasr Iroq, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino singari mashhur allomalarimizning nomlari tarix sahifalariga zarhal harflar bilan bitilgan. Hozirgi kunda akademiyada qutlug' ajdodlarning vorislari bo'lgan yosh, iste'dodli olimlarning ham dunyoni lol qoldiradigan kashfiyotlar qilishi, o'lmas asarlar yaratishi uchun keng imkoniyatlar muhayyo etilgan. Biz kutgan, kutayotgan olamshumul ishlar hali oldinda.

Jabbor RAZZOQOV.

GULLAR BAYRAMI

Yaqinda Asaka tumanidagi Istirohat bog'ida gullar bayrami bo'lib o'tdi. Tadbirni Asaka tumani hokimi Lutfullo Sa'dullayev ochib berdi. Shu kuni bog'imiz haqiqiy gulzorga aylanib ketdi. 43- o'rta maktab jamoasi o'quvchilar ko'magida xonaki gullarning yuzlab turlarini namoyish qilgan bo'lsa, tuman maktabgacha tarbiya muassasalari ajoyib guldastalari bilan qatnashishdi. Tadbirda turli sport musobaqalari ham bo'lib o'tdi. Sport musobaqalarida 1- o'ringa «Qoratepa» sport bazasi loyiq deb topilgan bo'lsa, 2- o'rinni Bahrin qishlog'i, 3- o'rinni esa Qayrag'och qishlog'ilik bolalar egallashdi. Asakalik umidli xonanda Tolib Zokirovning qo'shiqlari bayramni tantanaga aylantirib yubordi. Gullar bayrami qizg'in bahsmunozaralar bilan o'tib, g'oliblar aniqlandi. 43- o'rta maktab o'quvchilari eng faxrli o'rin sohibi bo'ldi. 2- o'rin 5- bog' chaga nasib qilgan bo'lsa, 3- o'rinni kasb-hunar kolleji egalladi. G'oliblar qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar.

Latifjon ALIYEV,
Andijon viloyati, Asaka tumanidagi
48-maktabning jismoniy tarbiya o'qituvchisi.

SUV YUZIDAGI KO'PIK

Anvar bilan Hamidni hamma qalin do'st deb bilishadi. Anvar Hamidga doim shirinlik yoxud saqich beradi. Hamid esa uga berilgan vazifalarni

Anvarning ko'chirib olishiga ruxsat beradi. Hatto sinfdagi sho'x qilishadi. Agar Anvar berishga chiqsa, larni bittalab aytib qilib, ikki do'st tushmasdi. Bir kuni doskaga chiqarib Anvar Hamidga qaradi. Hamid yaxshi o'zlashtir-berolmadi. Yechilmagan masala baho oldi. Alamini kimdan olishni bilmay Hamid bilan urishib ham qoldi. Ularning qalin do'stligi shu tarzda tamom bo'ldi.

Ularning do'stligini men suv yuzidagi ko'pikka o'xshatdim.

Sunnatilla OVLAQULOV,
Toshkent shahri, Hamza tumanidagi
255-maktabning 4-sinf o'quvchisi.



ONA TILIM – JON-U DILIM

Shuni faxr va iftixor bilan aytishimiz mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizda bir yuz o'ttizdan ziyod millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek yashab, mehnat qilmoqdalar. Shuning bilan birga davlat tili bo'lmish o'zbek tilini ham mukammal o'rganishga intilmoqdalar.

O'zbek tilining boyligi, rang-barangligini his va idrok etib, uni mehr bilan o'rganayotgan ko'plab xorijlik insonlarni bilaman. Ularning ona tilimiz, chiroyli urf-odatlarimiz, an'analimiz haqidagi iliq gaplarini eshitib, shu yurt farzandi ekanligimdan faxrlanib ketaman.

Zero, shoir yozganidek:

Oh, o'zinning o'zbek tilim,
Yoritgayman qalb-u dilim.
Ona tildan olgan mehrim,
Asos bo'lar bayt-u she'rim.

Malika RAHMONBEKOVA,
Respublika nafis san'at litseyi o'qituvchisi.

TA'ZIMDAMIZ

Yoshligimdan kompyuter mutaxassisi bo'lishni orzu qilardim. Shu bois maktabni tugatib, ushbu soha bo'yicha akademik litseyga o'qishga kirdim. Ta'lim maskanimizda o'qishimiz uchun barcha sharoitlar muhayyo. Direktorimiz Sirojiddin Jumanazarov, ilmiy mudir Shavkat O'roqov va ustozlarimizning sidqidildan berayotgan saboqlari bois kompyuterlarda to'liq belgilangan dasturlarni bajara olamiz. Zamonaviy kompyuterlar, skanerlar, printer qurilmalari, mutaxassisligimiz bo'yicha qo'llaniladigan barcha asbob-uskunalar bizning ixtiyorimizda. Biz yoshlarni puxta bilim olib, o'zimiz qiziqqan kasblarni o'rganishimizga yetarlicha sharoit yaratib berayotgan davlatimizga hamisha ta'zimdamiz.

Nilufar MO'MINOVA,
Mirzo Ulug'bek tumanidagi «Kompyuter texnologiyalari»
akademik litseyining II-bosqich talabasi.

DORUL HIKMA
VA MAORIF



Bor ekan-da yo'q ekan, och ekan-da to'q ekan, uzoq o'tgan zamondamas, ayni yaqin zamonda Yunusobod tomonida bir maktab bo'lgan ekan. Mustaqillik sharofati, Umum-milliy dastur ijrosi sabab, 70 yil avval qurilgan bir qavatli eski maktab binosi 274-maktab shu yil boshida, bir kecha-kunduzda buzib tashlanibdi. Uning o'rniga 3 qavatli, 945 o'rinli yangi bino xuddi ertaklardagidek qisqa vaqtda qurib bitkazilibdi. O'qituvchi-yu o'quvchilar yayrashibdi, juda xo'p suyunishibdi. Tasviriy san'at, biologiya, kimyo xonalari, sport zalini so'raganlarning «og'zi ochilibdi». Maktab jamoasi qo'y so'yib, ro'zadorlarga iftorlik qilib beribdi. Mahalla oqsoqoli, kimsan professor Erkin ota Tursunov, shu maktabning sobiq o'quvchisi, hozirgi kunda «O'zbekiston fan arbobi», professor Sobirjon Mirvaliyev, «Uch og'ayni botirlar» maktabning avvalgi va hozirgi direktori – Ubaydulla ota, Mannop ota, Sayfulla akalar mahalla ahli, faxriy ustozlarni, o'quvchi-yu o'qituvchilarni yangi o'quv binosi bilan qutlab, ezgu tilaklar bildirishibdi. Ustozlar bayrami arafasidagi bu tadbir barchaga manzur bo'libdi.

Ayni kunlarda o'quvchilar ham shodmish.

Nega, deysizmi? 5-«A» sinfida «Yozuvchi darsi» tashkil qilinib, unda O'zbekiston Xalq yozuvchisi Xudoyberdi To'taboyev ishtirok etibdilar. 2 soatlik o'quv darsini ona tili va adabiyot muallimi Mahmuda Valiyeva emas, Xudoyberdi To'taboyev o'tibdilar. Yozuvchi ustoz bahoga saxiy ekanlar, jami o'quvchilarni «Rag'bat» kartochkasi, ertak kitob va «Qarsak» bilan siylabdilar. Mahmuda opaning biroz rashki kelibdi, hamma o'quvchilari yozuvchi darsini «zo'r» deb baholashibdi-da! Yozuvchi ham «Bahorda kelganimda eski maktabni ko'rgandim, kuzda yangi binoni ko'rdim, bu mo'jiza-ku!» debdilar. Xullas, hamma murod-u maqsadiga yetibdi. 5-«A» sinf o'quvchilari «Yozuvchi darsi»dan taassurotlarini varaq-varaq yozibdilar. Shundan ayrim-larini Sizga havola etmoqdamiz:

BU MO'JIZA-KU!



– Adabiyot haqida o'ylaganingda, hech narsaning poyoniga yetolmaysan-da!..

Xudoyberdi TO'XTABOYEV, O'zbekiston xalq yozuvchisi.

BIRINCHI MEHMION

Hamma narsaning «birinchi»si esdan chiqmaydi. «Birinchi qo'ng'iroq», «Birinchi o'qituvchi», «Birinchi baho»... Men bularni doim xursand bo'lib eslab yurardim. Endi maktabimizga kelgan «Birinchi mehmon»ni ham unutmaman. Boshlang'ich sinfdan endi 5-sinfga o'tib, har xil o'qituvchilarga ko'nikishimiz qiyin bo'layotgan edi. Ustozimiz: «Oktabr oyida «Yozuvchi darsi» bo'ladi», deganlarida hayron bo'lgandim. U qanday dars, deb so'raganimizda: «O'sha kuni bilib olasizlar» degandilar. Bu darsda Xudoyberdi bobomiz bizdan o'tgan darsni so'radilar, ertakka ishlagan rasmlarimizni maqtadilar. Biz ular bilan suratga tushdik. Maktabimizga avval ham yozuvchilar, shoirlar ko'p kelishgan-u, yangi maktabda «birinchi mehmon» –Xudoyberdi bobojon bo'ldilar. Ularni unutmamiz, kitobdek umrlari boqiy bo'lsin, deymiz.

Nilufar MIRZAAHMEDOVA.



O'QIB IZLANSA, ORZUSIGA YETARKAN

Yozuvchining bolalik yillari II jahon urushi yillariga to'g'ri kelgan ekan. Xudoyberdi bobo Toshkentda musofirlikda yashab, o'qigan ekanlar. Ularning gaplarini maroq bilan tingladim. Keyin shunday xulosaga keldim. Kim qiyinchilikni bardosh bilan yengsa, o'qisa, izlansa, u albatta o'z orzu va istaklariga yetar ekan. Unday bolalar ota-onasi, ustozlarining yuzini yerga qaratmaydigan inson bo'lib yetisharkan. Xudoyberdi bobomizni uylaridan onam va ustozim borib mashinada olib keldik. Ular men bilan qo'l berib ko'rishdilar. Buvamni tanir ekanlar, buni eshitib xursand bo'lib ketdim. Eh, qanday mazza! «Sariq devni minib» kitobimga dastxat ham yozib berdilar.

Shomaqsud SHOABDULLAYEV.

DASTXATLI KITOBIM BOR

Bu yil 288-maktabning rus guruhidan 274-maktabga keldim. O'yijonim–Munisa Qosimova «Ruschani yaxshi o'rganib olding, endi seni o'zbek maktabiga, meni o'qitgan ustozim–Mahmuda Valiyeva rahbarlik qiladigan sinfga olib boraman», deganlarida biroz xafa bo'ldim. O'rtoqlarimdan ajralib, yangi do'stlarim bilan chiqisha olarmikanman, degandim. Tezda o'rganib ketdim. Xudoyberdi bobojonni oynayi jahon orqali «O'yla, izla, top»da ko'p ko'rdim. Endi bir sinfdan 2 soat birga o'tirdik, savollariga javob berdim. Menga: «Nabiram Shahzodga! Yaxshi o'qigin!» deb «Sariq devni minib» kitobini sovg'a qildilar. Qanday yaxshi, mening dastxatli kitobim bor. Uni qo'ldan qo'yamay o'qiyman va o'zbek tilida lotin alifbosida savodli yozishni o'rganaman.

Shahzodbek SHUHRATOV.

27 TILDA CHOP ETILIBDI

Yozuvchimiz bizga bolalik yillarini gapirib berganlarida, yig'lagim keldi. Ota-onalari yoshliklarida vafot etishgan ekan, o'zlari internatda o'qib, bog'bon bobolari qo'lida katta bo'lgan ekanlar. 8ta roman yozibdilar, semiz-semiz kitoblarni qanday yozgan ekanlar? Ustozimiz aytib berdilar, chop etilgan kitoblarning adadi uch milliondan oshibdi, biz uch milliongacha sanashimiz uchun kun yetmas ekan. Yana aytdilarki, «Xudoyberdi bobogizning kitoblari 27 tilga tarjima qilingan, asar qahramoni Hoshimjon Chippolino, Buratino kabi jahonda mashhur bo'lib ketgan». Shunday katta yozuvchi biz kichik bolajonlarni hurmat qilib kelibdilar. Kamtar, quvnoq, shirinso'z bobomizga havas qildik.

Hilola YO'LDOSHEVA.

QARSAK DAN ILHOM OLINARKAN

Bu gapni ham bobojonimizdan eshitdik. Sinfdoshim Zumrad, Malika, Hilola, Salohiddinlar «Uch og'ayni botirlar» ertagi bo'yicha yozuvchi savollariga to'g'ri javob berishdi. Shunda Xudoyberdi bobomiz «Qarsak chalib olqishlaylik», dedilar va so'rab qoldilar: «Qarsak nega chalinadi?» Qarsak hammaga yoqar ekan, yozuvchilar, artistlar qarsakdan ilhom, kuch olisharkan. Yana bobomizning «Jannati odamlar», «Besh bolali yigitcha», «Mungli ko'zlar» kitoblari ham borligini bilib oldim. Men bu kitoblarni topib, o'qib chiqishga ahd qildim. «Yozuvchi darsi» zo'r ekan. Bu dars bizning hayotimizda bir umr yodimizdan chiqmaydigan esdalik bo'lib qoldi.

Nig'monxo'ja NASIRULLAYEV.

SO'NGSO'Z

Aziz bolajonlar! Mana, o'quvchilarim yozgan taassurotlaridan ayrimlarini o'qidingiz. Albatta, ayrimlarini qisqartirdim, ayrimlarini biroz tuzatdim. Asosiysi, har bir o'quvchim quvonib yuribdi. Shunday xulosaga keldim: 2 oyda yoki 6 oyda bir marta «Yozuvchi darsi»ni uyushtirib turish kerak ekan. Bu dars badiiy adabiyot va kitobga mehrni oshiradi, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, xulosa, yakun chiqarishga undaydi. Zero, adabiyot o'qitishdan maqsad ham o'z fikriga ega o'quvchini shakllantirishdir. Ustozlaringizdan shunday dars uyushtirishlarini iltimos qiling, taassurotlaringizni esa sevimli gazetangiz «Tong yulduzi»ga yo'llang.

Mahmuda VALIYEVA,

Yunusobod tumanidagi 274-maktab muallimasi.

Vladimir Grankin olgan suratlar.



QO'NG'IROQNI ESHITMAY QOLIMIZ

Yozuvchilarning darsi qiziqarli bo'larkan. Avval ustozimiz Hoshimjon haqida o'qib berdilar, keyin bobomiz bu obraz haqida gapirib berdilar. Suratga tushdik, dastxat olish uchun ularni o'rab olibmiz. Shunchalik qiziqib ketibmizki, qo'ng'iroqni ham eshitmay qolibmiz. Shunaqa darslarda chiqishga qo'ng'iroq bo'lmasa ham charchamas edim.

Abdukarim TOJIYEV.



Ertaklar yaxshilikka yetaklar

Sarlavhani o'qiboq, gap nima haqida ekanligini anglagandirsiz-a, aziz ertaksevar bolajonlar. Bobo va buvijonlaringiz ham bolaligida bobolari hamda momolaridan qiziq-qiziq ertaklar eshitib katta bo'lganlar. Ularni o'z navbatida sizlarga so'zlab berganlarida, go'yo undagi qahramonlarning hayoti bilan yashaysiz. Mo'jizakor tabiatga sehrli bir tuyg'u bilan boqasiz. Demak, ushbu ertaklar og'izdan-og'izga ko'chib, bebaho xazinamizga aylanib kelmoqda.

Ana shu xazinani yanada boyitish maqsadida 2005-yilda «Gulxan» jurnali jonkuyarlaridan biri, bolalar ijodkori Muhabbat opa Hamidovaning g'oyasi, «Kamolot» YOIH tashabbusi bilan «Momomning sandig'i» ertaklar tanlovi e'lon qilinganidan xabaringiz bor. Ushbu tanlovga sevimli gazeta va jurnallaringiz «Tong yulduzi», «Gulxan», «G'uncha»lar ham hamkorlik qilishib, diyorimizning turli burchaklarida istiqomat qilayotgan tengdoshlarinigizning bobolari va momolaridan eshitgan hamda o'zlari yozgan ertaklarini saralab, yil davomida o'z sahifalarida chop etib borishdi.

Saralarning eng sarasi bo'lgan ijod namunalari jamlanib, «Momomning sandig'i» nomli ertaklar to'plami nashr etirildi. Ushbu kitobning taqdimoti



Respublika qo'g'irchoq teatri binosida bo'lib o'tdi. Fursatdan foydalanib, tanlov g'oliblarini suhbatga tortdik:

Dilbar QAHHOROVA, Buxoro Davlat universitetining I-bosqich talabasi:

–Shofirkon tumanidagi 12-o'rta maktabning 11-sinfida o'qiyotganimda, tanlovga «Qo'shqanot degan mamlakat» nomli ertagimni yuborgan edim. Ochig'i, g'olib bo'laman deb sira o'ylamagandim. Hayajondaman. Yana ko'plab ertaklar yozaman. Ularni o'qib, ukalarim, singillarim bahra olishsin. Bugun shunga

MOMOMNING SANDIG'IDA NIMA BOR?

amin bo'ldimki, inson izlanishdan, o'qib o'rganishdan bir zum bo'lsa-da to'xtamasa, albatta boshiga baxt qushi qo'naverarkan. Ushbu tanlov tashkilotchilariga chin dildan rahmatlar aytaman.

Muhammad OMONULLAYEV, Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi 75-maktabning 7-«B» sinf o'quvchisi:

–Darsdan so'ng keng yaylovlarda mol boqib, yam-yashil maysalar ustida mazza qilib kitob o'qiyman. Ertaklarni yoqtirganim bois, ko'pincha ertak kitoblar o'qiyman. Ulardagi muruvvatli, dili pok qahramonlarga o'xshagim keladi. «Momomning sandig'i» ertaklar kitobida «Sichqon bilan tipratikan» nomli ertagim chop etildi. Meni poytaxtga chaqirishgani butun qishlog'imizda shov-shuv bo'lib ketdi. Onajonimning meni quvonch bilan bag'rilariga bosib boshimni silab qo'yishlari, bu eng katta mukofot edi.

Sardor TOLIPOV, Geodeziya-kadastr kollejining I-bosqich talabasi:

– Bizning Tuzel qishlog'imiz o'zining toza havosi, zilol suvlari bilan hamisha mashhur bo'lib kelgan. Keng dalalar bag'rida, mavjlanib oqayotgan suvlar bo'yida kezib, uzoq xayol suraman. O'zimcha ertaklar to'qiyman. Ularning birinchi tinglovchisi albatta oyijonim bo'ladilar. Kamchiliklarimni erinmasdan tuzatib, bilmaganlarimni o'rgatadilar. Bugungi tanlovda «Qoravoy» nomli ertagim bilan



g'olib bo'ldim. Quvonchim cheksiz.

Elbekjon RO'ZIMATOV, Alisher Navoiy nomli Respublika nafis san'ati litseyining 8-«A» sinf o'quvchisi:

– Uyimizda juda ko'p kitoblar bor. Dadajonim ham, oyijonim ham ularni sevib o'qiydilar. Ularga ergashib men ham ko'p ertak kitoblarni mutolaa qilaman. «Ustoz burchi» nomli ertagim bilan men ham ushbu tanlovda g'oliblikni qo'lga kiritdim. Birinchilar safida bo'lish yaxshi ekan. G'alabamdan ruhlanib, yana ertak yozgim kelayapti.

Ha, «Momomning sandig'i» nomli ilk to'plamning chop etilishi yurtimizning turli burchaklarida yashab ijod qilayotgan 42 nafar yosh, umidli ijodkorlarimizni elga tanitdi. O'ylaymizki, siz ham ularga havas qilib, bobojonlaringiz hamda buvijonlaringizdan eshitgan hamda o'zingiz ijod qilayotgan ertaklaringizni bizga yozib yuborasiz. Ajabmas, bundan keyingi tanlovimizda siz ham g'oliblikni qo'lga kiritsangiz.

Jamila ERDONOVA.



Fransiyadan maktub

Men jannatmakon yurt – O'zbekiston haqida, uning san'ati, madaniyati,

me'morchiligi hamda buyuk insonlari haqida juda ko'p eshitgandim. Yaqinda shu go'zal o'lkani ko'rish baxtiga muyassar bo'ldim. Yurtingizni o'z ko'zi bilan ko'rgan inson bu yerlarga yana kelgisi, u haqida yanayam ko'proq bilgisi kelarkan. O'zbekistonning tarixiy obidalari, muzeylari bilan yaqindan tanishdim. Azim Toshkent shahrining eng katta bozorlardan biri «Chorsu»da bo'ldim. Peshtaxtalardagi quyosh nurida tillodek tovlanib turgan nok, uzum, anor, xurmoldan, milliy taomlaringizdan tatib ko'rdim. Paxta gulli choynak - piyolada achchiqqina choyni menga tavoze bilan uzatgan Hosiyat opa bilan yaqindan tanishib qoldim. U kishi haqiqiy iste'dod egasi ekanlar. Ko'p yillar bolalar teatrida artist bo'lib ishlaganlari, hozirda o'zlari bolalar folklor ansambli tuzib, qo'shiq yozib, ularga o'zlari kuy bastalab kelayotganlarini bilib oldim. Yana she'rlar ham yozarkanlar. «Hosi-

«YURTINGIZGA YANA KELAMAN...»

yatli kun» nomli kitoblari she'rlari

chop etilgan «Tong yulduzi» gazetasidan menga bir dona sovg'a qildilar. O'zlari yozgan qo'shiqlaridan xirgoyi qilib berdilar...

Bir so'z bilan aytganda, yurtingiz va xalqingiz haqidagi taassurotlarim bir olam. Diqqatga sazovor joylarini esdalik uchun suratga oldim. Parijga kelganimda barcha qarindoshlarimga, do'stlarimga ko'rsataman, bu yurt haqida to'lqinlanib gapirib beraman.

O'zbekistonlik bolajonlarim, men sizlarni Ramazon hayiti bilan chin dildan muborakbod etaman. Sharqning bu quyoshli yurtiga yana albatta kelishni niyat qilib qolaman.

Elen DEBUA,
Fransiya, Parij.



«Tong yulduzi», «Gulxan», «G'uncha» ...

Ko'plab mashhur shoir-u yozuvchilar uchun ilk qadamlarini qo'rgan tabarruk dargoh sanaladi bu nashrlar tahririyatlari. Nafaqat ular, mashhur olimlar, fan arboblari ham ota-ona mehri, Vatan tuyg'usi, maktab ostonasining muqaddasligi haqidagi tushunchalarni ana shu nashrlardan o'rganishgan.

Aslida hamma bolalar yaxshi fazilatli kishilar taqdiriga qiziqadilar. Axir biz ham bir paytlar bola bo'lganmiz-da, bilamiz, his qilamiz.

Ustozlar G'afur G'ulom, Zulfiya opamiz, Saida Zunnunova, Maqsud Shayxzodalarni bizga tanitgan mazkur dargoh men ham Bahri opa G'ulomova, Farida Usmonova, Suhrob Yo'ldoshev, Habib Sa'dulla, Sobit G'afurov, Narimov Orifjonov kabi ustozlar bilan 50 yildan ortiq ishlaganman. Bu dargohni ziyoratgoh desam xato bo'lmas. Chunki, hozirda ham dili pok, tili sodda va samimiy ijodkorlar mehnat qilishadi.

Shoir «Vatan – hali tug'ilmagan evaram mulki», deb bejiz aytmagan. Shu hikmatga amal qilib yashagan, shogirdlari qalbida hurmat-e'tibor qozongan shoirlarimizdan yana biri Narimov Orifjonovdir.

KAKLIGIM

Tumshuqlaring tilladay,
Momiq paring pilladay,
Shoshma, seni bir ko'ray,
Beozor qush, kakligim!

Ketolmaysan uzoqqa,
Seni solmam tuzoqqa,
Kel, mehmon bo'l bu boqqa,
Bog'imga tush, kakligim!

Senga har xil don beray,
Xohla shirin non beray,
Erkin uch, imkon beray,
Kel, go'zal qush, kakligim!

Ikki asr guvohi – XX asr oxiri va XXI asr boshlarida yashab o'tgan Narimov akangiz sizlar uchun juda ko'plab qo'shiqlar, ajoyib ertak va dostonlar yozib qoldirgan. Uning «Oq kap-tar», «Yurakka tekkan o'q», «Zilzila», «Zubayda va men» nomli to'plamlari o'z o'quvchisini topgan.

Yuzlaridan nur taralib, doim nim tabassum bilan o'z shogirdlarini kutib oladigan, ko'plab havaskorlarni bag'riga olib, samimiy oq yo'l



Hamisha uyg'oq xotira

KUNGABOQAR

Urug' sochdim ko'klam chog'i,
Quloq qoqdi kungaboqar.
Quyosh bo'ldi nur bulog'i,
Kunga boqdi kungaboqar.

Sariq guldanda lenta taqqan,
Chambarakmi deysan boshin.
Doim kulib kunga boqqan,
Juda sevar u quyoshni.

Bo'yin cho'zar yaqinlashsang,
Kungaboqar kimga boqar?
Kim mehnatga chechan bo'lsa,
Kungaboqar shunga boqar!

Narimov ORIFJONOV.

tilagan Narimov akangizning asarlari maktab kutubxonalarini, uyingizdagi kitob javoningizdan munosib o'rin olgan bo'lishi kerak.

Mustaqilligimiz sharofati bilan uning «Eng baxtli kun» deb nomlangan kitobi chop etildi.

Undan jiddiy, quvnoq, bolalar ko'ngliga yo'l topa oladigan asarlari joy olgan.

Narimov aka o'z zamondoshlari, do'stlari bilan uchrashganlarida ham bahs-munozara, hazil, mutoyibalari badiiy ijod doirasidan chetga chiqmasdi.

–Narimov aka! – dedi bir kuni Safar aka. –Sizlarga ham ancha qiyin bo'lgan edi-da!

–Nega, – hayron bo'ldi Narimov aka.

–Nega bo'lardi, hadeb:

«Quyoshga o'xshar,

Mening bobomlar.

Ming yillar yashar,

Mening bobomlar...»

Gapning mag'ziga tushungan Narimov aka:

– Davr talabi edi-da, - deb qo'ydi astagina.
– Shu-da. Bobolaring bittagina bo'lgan ekan-da. Menda esa mingta.

Hazil-mutoyiba jiddiy tusga kirdi.

– Qiziq ekansiz-a, - dedi Narimov aka. – U paytda o'z bobolarimizni maqtab ko'raylik-chi...

Mustaqillik sharofati bilan qalbmizdagi orzu umidlarimiz ro'yobga chiqdi. Har birlari bir xazina bo'lmish bobokalonlarimizni taniyapmiz. Dunyo tan olgan allomalarimizning asarlari bebaho meros bo'lib qolayapti.

Bugun men sizlarga sevimli jurnallaringiz «Gulxan», «G'uncha» jurnallarida mehnat qilgan, mustaqillikning dastlabki besh yilini bo'lsa-da, ko'rganiga, ijod qilganiga shukrona qilib o'tgan Narimov Orifjonov hayoti, ijodidan bir shingilgina hikoya qildim, zero, xotira hamisha uyg'oqdir.

Malika BARNOYEVA.

Tengdoshlaring ijodi

USTOZIM

Mening ustozimni hamma taniydi,
Yuzidan nur yog'ar, suxanidan bol.
Ustozga o'xshasam men ham qaniydi,
Ilmda tengsizdir, xulqda barkamol.

Ustoz yurgan yo'llar bog'ga aylanar,
Sahrolarni gullar aylaydi makon.
Bundan mening ko'nglim tog'ga aylanar,
Ko'zlarim ravshandir, tillarim biyron.

Siz ham ustozingiz qo'ldan tuting,
Faqat oldga qarab yuring bolalar.
Va uning sha'niga dostonlar biting,
Poyiga sochingiz gul-u lolalar.

Ustoz va shogirdning kamolin ko'rib,
Odamlar judayam qilsinlar havas.
Istardim: ustozim bir kuni kelib,
«Bu – mening shogirdim!» desalar, shu bas!

YULDUZ

Subhidamda porlaydi yulduz,
Atrofida na yo'l bor, na iz,
Do'stlarini yo'qotib qo'yib,
Milt-milt etar bechora yolg'iz.

Dadang qani, yulduzim sening?
Ayang qani, yulduzim sening?
Soat sayin ranging so'lmoqda,
Qirqildimi ildizing sening?

Kel, men bilan do'st bo'la qolgin,
Senga she'rim bitib qolurman,
Namanganda, Chortoq ustida,
Har tong seni kutib qolurman.

Dinora HAMDAMOVA,
Namangan viloyati, Chortoq
tumanidagi 53-maktab o'quvchisi.

ALBATTI OLDINGI O'RINDA BO'LAMIZ



«Obuna – 2007»

Qadrdonim «Tong yulduzi»! Men o'qituvchilar sulolasi farzandiman. O'zim ham kelajakda muallima bo'lishni niyat qilaman. Buning uchun maktabda a'lo baholarga o'qishim, fikrimni aniq va teran bayon qilishim, qiziqarli qilib gapirib berishim kerak deb o'ylayman. Bunda sen bizga juda kerak bo'lasan-da. Sinfdan tashqari o'qishlarimizda ustozimiz Halima opa Safoyeva bilan rang-barang sahifalarimizni o'qib, aqlimizni charxlaymiz. Respublikamizdagi yoshlar hayoti bilan tanishamiz. Yaqinda maktabimiz direktori Rafael Rahmatov majlis qilib, bolalar nashrlariga obuna bo'lishimizni aytdilar. Biz dugonalarimiz Zarina, Gulnisor, Sarvinozlar bilan birinchilar qatorida sevimli gazetamiz «Tong yulduzi»ga obuna bo'ldik. 2007-yil obunasida biz buxoroliklar yana eng oldingi o'rinlarda bo'lishimizga ishonaman.

Visola SAIDOVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi Fitrat nomli
45-maktabning 8-«B» sinf o'quvchisi.

OLTIN KUZ

Sariq rangga bo'yalib,
Yetib keldi oltin kuz.
Yozni ortda qoldirib,
Bo'lar biz-la yuzma-yuz.

O'quv yilini boshlab,
Yetib keldi oltin kuz.
Maktab tomon boramiz,
Qatorlashib izma-iz.

Mevalar xo'p pishadi,
Polizda qovun- tarvuz.
Qishni boshlab beradi,
Ketayotib oltin kuz.



Yulduz QODIROVA,
Sirdaryo viloyati, Guliston
tumanidagi
5-umumiy o'rta ta'lim
maktabining
7- sinf o'quvchisi.

OFTOBJON

Sening nuring hayot yo'li,
Sen-la shodon inson dili.
Oftobjonim yaraqlaysan,
Tongni boshlab charaqlaysan.

Olam olur sendan bardosh,
Doim bo'lgin bizga yo'ldosh.
Kunlarimiz yoritasan,
G'am-anduhim aritasan.

Samo uzra porlayvergin,
Ezgulikka chorlayvergin.
Kunduzimiz charog'ondir,
Sen-la hayot farovondir.

Bahodir RAHMONOV,

Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi 38-maktabning 10-sinf o'quvchisi:

DADASINING JAHLI YOMON EKAN...

– Baxtiyor ismli eng yaqin do'stim bir sinfdoshimni sevib qolibdi. U qiz chiroyi, orastaligi, odobi va aqli bilan do'stimni o'ziga rom etibdi. Lekin Baxtiyor unga muhabbatini qay tarzda izhor qilishni bilolmay garang bo'lib yurardi. Shunda miyamga ajoyib bir fikr keldi: sinfdoshimni uyidan chaqirib, ularni uchrastirmoqchi bo'ldim. Shunday qildim ham.

Komila O'ROLOVA,


Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumanidagi 249 - maktab o'quvchisi:

JAVOBSIZ MUHABBAT

Javobsiz muhabbat – ko'klam xazoni,
Javobsiz muhabbat – yozdagi jala.
Bahor bog'larida kuzak mezon;
Bokira gullarga ilashgan nola.
Javobsiz muhabbat – azobdir, azob,
Yurakning tubiga urilgan xanjar.
O, qalbm, bunchalar bo'lmasdik xarob,
Sevgimiz javobli bo'lganda agar.
Yillar o'taverar beparvo, besas,
Biroq, tuzatolmas umr xatosin.
Olisdan keltirar u elas-elas,
Javobsiz muhabbat aks-sadosin.
Vaqt chizig'ini tortar beshafqat,
Ajin bo'lib tushar yuzlarimizga.
Mangu barhayotdir ammo muhabbat,
Xazon to'shalsa-da izlarimizga.
Inson taqdiri shu – tizginsiz bedov,
Hech kim bilolmaydi, qanday o'tadi?
Hayot nazarimda go'yo bir garov,
Kimdir yutqazadi, kimdir yutadi.
Mayli, u sevmasin, yig'layman nechun,
Chiroq parvonaga qilarmi shavqat?!
Umrin yo'llarida borligi uchun,
Uni sevganim-chun unga ming rahmat!

Lekin bundan xabar topgan dadasi qizini ham, do'stimni ham rosa koyibdi...

Sevgi–har kimga ham nasib qilavermaydigan sof va beg'ubor bir tuyg'u, deya ta'rif berishadi. Shunday ekan, nega ota-onalarimiz, ustozlarimiz biz yoshlarning sevgisiga to'sqinlik qilishadi? Axir bu tuyg'u bilan hech kim jabr ko'rmagan, qolaversa, o'zlari ham bir paytlar sevib-sevilishgan-ku.



Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi 75 - umumiy o'rta ta'lim maktabining 8 - «B» sinf o'quvchisi Feruza ESHONQULOVA sahifamizga yo'llagan hazil rasmini «Sevgi yosh tanlamaydi» deb nomlabdi.

Sahifamiz yana muhabbat haqida. Sababi, bunday mazmundagi xatlaringiz, har kimga ham nasib qilavermaydigan bu ajib, totli, ayni damda, azobli tuyg'u haqidagi she'riy mashqlaringiz anchagina to'planib qoldi. Quvonarlisi, ularning mazmuni yengil-yelpi qarashlar, yuzaki fikrlar, «o'ldim-qoldim»lardan yiroq. O'quvchini mushohadaga, munozaraga chorlovchi maktublar.

Qani, o'qib ko'raylik-chi tengdoshlaringiz nimalarni yozishibdi. Ularga munosabat, fikr bildirish esa Sizdan:

Maktabdagi muhabbat

Ma'fura JAMOLIDDINOVA,

Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi 29-maktabning 9-«A» sinf o'quvchisi:

BA'ZAN HAVASIM ORTAR, BA'ZAN...

– Maktabda o'qish bilan birga bir necha to'garaklarga qatnayman. Shuning uchun ham ko'cha-ko'yda ko'p yurishimga to'g'ri keladi. Jamoat transportlarida, bekatlarda beixtiyor tengdoshlarimni kuzataman. Ba'zilariga qarab havasim ortsa, boshqalarini ko'rib dilim xira tortadi. Ayrim «sevishganlar»ning bachkana qiliqlarini, bir-birlariga suykaliqlarini ko'rib, atrofimdagi kattalardan uyalib ketaman. Go'yo bu noma'qulgarchilikni ular emas, men qilayotgandek. O'g'il bolalar ham mayli-ya, lekin ana shu qizlarning qadam olishlaridan uydagilari xabardormikanlar?!

Menimcha, ularning bunday tarbiya topishlariga ota-onalari ham sababchilar. Agar qiz bola yoshlikdanoq oilada to'g'ri tarbiya topsa, milliyatimizga, urf-odatlarimizga zid bo'lgan bunday yurish-turishni o'zlariga or bilardilar. Shunda ota-onasining ko'zini shamg'alat qilishiga hojat ham qolmaydi. Zero, yozuvchi Jozef Choser: «Kimki axloqiy tubanlikdan, o'rinsiz hush-suxanlikdan ogoh bo'lib turmasa, bir kun rasvo bo'lgan farzandining holini ko'radi» deb yozganida, nechog'li haq edi.


TIRIKMAN-U, YO'QDEKMAN

Tirikman-u, yo'qdekman,
Yondirguvchi cho'g'dekman,
Yurak teshgan o'qdekman,
Olovdirsan muhabbat.
Xayollarni olgan sen,
Yonar o'tga solgan sen,
Zor yig'latib qolgan sen,
Shirin azob muhabbat.
Oshiqni ko'r qilgan,
Qo'rqoqni ham zo'r qilgan,
So'niq qalbni qo'r qilgan,
Achchiq sharob muhabbat.
Qiz sevgisin aytolmas,
Bu yo'ldan hech qaytolmas,
Xayolan o'ylab tolmas,
Eng sof tuyg'u muhabbat.
Men ham tushdim domingga,
Yuragimda bir tuyg'u,
Olov bo'lib yonadi,
Tunlar bermaydi uyqu.
Tirikman-u, yo'qdekman,
Yondirguvchi cho'g'dekman...

Gulshoda ALIMOVA.

DO'ST TUTINISH AYBMI?

Dunyoda insonlar qadrlaydigan samimiy tuyg'ular ko'p. Vatanga, ota-onaga muhabbat, sevgi va do'stlik tuyg'ulari ular orasida eng muhimlari deb o'ylayman. Do'stlik odamlarni bir-birlariga yaqinlashtiradi, qadrlashni, ardoqlashni o'rgatadi. Men do'st deganda, yaxshi-yomon kuningda birga bo'luvchi, mushkulingni yengil qiluvchi insonlarni tushunaman. Har kim hayotda yaxshi do'st



«Maktabdagi muhabbat» deb nomlangan mana bu suratni esa Toshkentdagi 135 - maktabning 9 - sinf o'quvchisi Maftuna ABDULLAYEVA chizibdi.

orttirishni istaydi.
Chin do'sti bor

kishi esa dunyoda eng baxtiyor inson sanaladi. Axir: «Yuz so'm puling bo'lguncha, yuzta do'sting bo'lsin», deb bejiz aytishmaydi-ku.

Negadir o'g'il bolalar bilan qizlar o'rtasidagi do'stlikni ko'pchilik to'g'ri tushunmaydi. Nima, bunday do'stlik ayb sanaladimi? O'g'il bola bilan qiz bola ko'chada gaplashib turishsa, darhol gap-so'z qilishadi. Bu esa ularning yuragiga ozor yetkazadi.

Boshqalarni bilmadim-u, men bunday do'stlikni o'ta samimiy va mustahkam deb bilaman. «Maktabdagi muhabbat» esa butunlay boshqa masala. Bu borada hali bir jo'yali gap aytolmayman. Chunki hali bu tuyg'u bilan ro'baro' kelmaganman.

BAHODIR.

Maktabimni maqtagum

O'QUVCHILARGA BIR XIL KIYIM

Shahrimizning Chilonzor tumanida joylashgan 126-maktabga kirib borarkanman, bir xil forma kiygan qizlarni ko'rib, ko'zim quvnadi. Chor-atrof top-toza, bir-biridan chiroyli gullar ochilib yotibdi. Maktabga kiraverishda navbatchilik qilayotgan o'qituvchilar maqsadimni bilgach, meni maktab direktori Hidoyat opa Madaminovaning oldilariga boshladilar. Hidoyat opaga birinchi bergan savolim maktab formasi haqida bo'ldi.

–Biz bu formani 2002-yilda joriy qilganmiz, - deya gap boshladilar opa. – Ota-onalar majlislari o'tkazib, o'quvchilarning yuz foiz forma kiyishlariga erishganmiz. Maktabga formada kelish o'ziga xos mas'uliyatni ham belgilaydi. Ba'zi maktablarga borganimda, qizlarning xuddi tantanaga ketayotgandek kiyinib kelishayotganini ko'rib, jahlim chiqardi. Ilm dargohiga turli taqinchog'-u xilma-xil kiyimda kelish o'quvchilar orasida tafovutni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham biz o'quvchilarga bir xil forma joriy qilish tashabbusi bilan chiqdik. O'quvchilarga ikki xil forma: havo issiq bo'lganda ko'k ko'ylak va oq fartuk, soviy boshlaganda esa uzun kostyum bilan shim kiyishni joriy qilganmiz. Bunday kiyim o'quvchilarning o'zlariga ham qulay, qolaversa, ota-onalarga ham juda ma'qul kelmoqda. Shaxsiy gigiyena qoidalariga ham javob beradi. Hozirgi kunda bu maktab formasi butun tumanimizda joriy qilingan.



kasb mahorati va sinfdan tashqari ishlari uchun 35 nafar o'qituvchilarga ustama haq belgilangan. Moddiy texnika bazasini boyitish maqsadida, bu yil 4ta sinfimiz zamonaviy o'quv jihozlari bilan ta'minlandi. 2005-2006-o'quv yillarida tumanimizdagi 300ta maktab orasidan 3ta bilim dargohi yetakchi maktablar ro'yxatidan joy oldi. Bularning orasida bizning ilm maskanimiz ham bor. Endi Osiyo taraqqiyot banki homiyligida ikkita sinfimiz zamonaviy kompyuter bilan ta'minlanadi. Kompyuterlarni olishni fevral oyiga mo'ljallayapmiz.

Maktabimizda ota-onalar, mahalla hamkorligida juda ko'p tadbirlar o'tkaziladi. Jumladan, «Zulfiya» Davlat mukofotini olgan qizlarni tez-tez taklif qilib turamiz. Hech bir tadbirimiz maktabimiz qoshida tashkil etilgan «Orzu» raqs dastasi va Vokal cholg'u ansamblining ishtirokisiz o'tmaydi...

YANA ELLIKTA GAZETA

–Inson o'zi sevgan mashg'uloti bilan shug'ullansa, yoshlikdan mehr qo'ygan kasbini ardoqlasa, o'zgalarga mehr-muruvvatli bo'la olsa, undan baxtli inson yo'q, nazarimda. Axir bizning qo'limizda millatimizning, xalqimizning kelajagi bo'lmish yosh avlod ta'lim-tarbiya olmoqda. Ularning kelajakda qay darajada yetuk inson

bo'lishlari bizlarga bog'liq. Shuning uchun kerak bo'lsa, talabchan, kezi kelganda ota-onadek mehribon bo'lishimiz kerak.

«Tong yulduzi» o'quvchilari ham ota-onalari orzu qilgan inson bo'lib yetishishlariga ishonch bildiraman va maktabimizda «Tong yulduzi»ga 50 nafar o'quvchini obuna qildirib beraman.


Maktab direktorining va'dasini olib, o'quvchilarga yuzlandim:

«MAHORATIMNI BOSHQALARGA HAM O'RGATAMAN», – DEYDI

Madina MURODXO'JAYEVA, 11-sinf o'quvchisi, sportning sinxron suzish bo'yicha Respublika chempioni.

–Oyijonim meni ilk marta suzish havzasiga olib borganlarida, hayajonlanib ketgandim. Chunki suzishni bilmadim-da. Avvalo suzishni Yunusobod tumanidagi Suv sport saroyida birinchi murabbiyim Lidiya Vitalyevnadan o'rgandim. Keyin «Jar» sport majmuasidagi suzish havzasiga qatnadim. Hozir Diplomatya universitetining suv havzasiga borayapman. Murabbiyim Ella Anatolyevnadan sinxron suzishni yana-da mukammalroq o'rganayapman. Bo'sh vaqtlarimda

avvallari fortepyano chalardim, musiqa tinglardim. Hozir esa bo'sh vaqtimning o'zi yo'q. Maktabdagi darslar, keyin mashg'ulotlar... Qiyinchi-lik siz biror natijaga erishib bo'lmaydi. Men sinxron suzish bo'yicha chempion bo'lgan Anastasiya Brunikinaga, Darya Majayevaga juda havas qilaman. Kelajakda Jismoniy tarbiya



«Bir kun ilm bergan kishi, bir kecha toat-ibodat qilgan kishidan ko'proq savob oladi...»

«Hadislar kitobi»dan.

institutining sinxron suzish fakultetiga kirmoqchiman va o'rganganlarimni, mahoratimni boshqalarga o'rgatmoqchiman.

O'ZBEKISTONNI DUNYOGA TANITSAM...

Shohista IS'HOQOVA, 11-sinf o'quvchisi:

–Men adabiyotga juda havasmandman. O'zim she'rlar ham mashq qilib turaman. Xalqimizning taniqli shoirlaridan M.Yusuf, Ramz Bobojon, shoiralardan H.Xudoyberdiyeva she'rlarini miriqib o'qiyman. Yozgan



she'rlarimni ona tili o'qituvchimiz Dilbar opa G'aniyeva, tarix o'qituvchimiz Shoir opa Xudoyberdiyeva tahrir qilib berishadi. M.Yusufning «Mehr qolur, muhabbat qolur» she'rini o'qib, ta'sirlanganimdan bo'lsa kerak, birinchi she'rimni yozganman. Tarix, ingliz, adabiyot fanlariga juda qiziqaman. Kelajakda suxandon

bo'lish niyatim bor. O'zim ko'rsatuv tayyorlab, O'zbekistonimizning chiroyli joylarini boshqa davlatlarga «ko'z-ko'zlash»ni istayman. Mavzuga moslab she'r ham yozib qo'ydim. Uning to'rt misrasini eshitib ko'ring-a:

VATAN

Vatanni har kim har xil anglaydi:
Kimdir uni, onamdayin suyugim, deydi.
Kimdir sajdagohim, buyugim, deydi,
Mayli, gul so'zlarga burkang Vatanni,
Unga fido qilsak arzir jon-tanni.

TASAVVUR ETIB BO'LMAS

Bu zaminni osmonsiz,
Yaxshini yomonsiz,
Umid hissini armonisiz,
Tasavvur etib bo'lmas.
El karvonin sarbonsiz,
Asl ishqni hijronsiz,
Dardlarni ham darmonsiz,
Tasavvur etib bo'lmas.
Oyning yuzini dog'siz,
Daraxt shoxin yaproqsiz,
Qosh-u ko'zni qarog'siz,
Tasavvur etib bo'lmas.
To'liq baxtni zahmatsiz,
Rohatni-chi mehnatsiz,
Do'st qadrini dushmansiz,
Tasavvur etib bo'lmas.

Hidoyat opa aytganlaridek, bu maktabda iqtidorli o'quvchilar talaygina ekan. Suhbatimiz

so'nggida yana forma xususida biroz to'xtalsak. Xizmat yuzasidan ko'p maktablarda bo'lganimda, ba'zi bilim dargohlarida o'quvchidan o'qituvchilarni ajratib ololmagan-dim. Bu maktabdagi bir xil formali qizaloqlarni ko'rib esa, ko'zim quvnadi. Baribir maktabga alohida formada borishga nima yetsin?!

Ozoda TURSUNBOYEVA.

SHOGIRDLARIMGA ISHONAMAN

Ilm maskanimizda 1707 nafar o'quvchi 2 mavsumda ta'lim-tarbiya oladi. Shulardan 120 nafari iqtidorli hisoblanadi. «Oila, maktab, mahalla» konsepsiyasi bo'yicha maktabimizda turli tadbirlar o'tkazib turiladi. Maktabimiz qoshida trenajyor zali mavjud. Xalq ta'limi bo'limi qoshidagi «Litsey» o'quv markazi homiyligida bu yerga sport anjomlari olib kelingan. Sportning sinxron suzish, kurash, taekvan-do, kikkboxing, gimnastika turlari bo'yicha chempion o'quvchilarning bor. Ularning yanada yuksak cho'qqilarni zabt etishlariga ishonaman.

O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida, bilim dargohimizda 24ta fan to'garaklari ishlab turibdi. Bundan tashqari, «Zulfiyaxonim» klubi tashkil qilingan bo'lib, bu yerda adabiyotga ishtiyoqmand o'quvchilar ijod namunalari bilan o'rtoqlashadilar.

Farzandlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida, mustaqilligimizdan so'ng qad ko'targan shahrimizning diqqatga sazovor joylariga, jumladan, «Tarix muzeyi», «Temuriylar tarixi» davlat muzeyi, «Xotira maydoni», «Ezgulik monumenti majmui», «Shahidlar muzeyi»larga uyushtiriladigan sayohatlarga o'quvchilar bilan birgalikda ularning ota-onalari ham borishadi. Bunday sayohatlar oylik rejamizga kiritilgan.

YETAKCHI MAKTABLAR RO'YXATIDA BOR

Maktabimizda uzoq yillardan buyon ustozlik qilib, barchaning olqishiga sazovor bo'lgan o'qituvchilar talaygina. Ona tili va adabiyot o'qituvchisi Maysara Oripova «Sog'lom avlod» ordeni bilan taqdirlanganlar, oliy toifali kimyo fani o'qituvchisi Shoir Ikromova mana shunday ustozlar sirasiga kiradi. Bundan tashqari,

Keling, do'stlashaylik

Aslida do'stlarim juda ko'p. Ishonasizmi, bir kunda ularning soni yana bir nechga ortdi. Qanday qilib deysizmi? Keling, yaxshisi bir boshdan gapirib bera qolay:

Yaqinda jiyancham Ulug'bekni hayvonot bog'iga olib borgandim. Atrofimizda bir necha chet ellik tengdoshlarim ham aylanib yurishardi. Ulug'bek hayvonlarni tomosha qilar, haligi o'g'il-qizlar esa uning maymunlar harakatlaridan zavqlanib,

o'zbek milliy raqslarini o'rganayotgani ham bejiz emas ekan.

– Oyimning aytishlaricha, avvallari o'qituvchilar o'ta talabchan, qattiqqo'l bo'lishganidanmi, bolalarning

**DUGONALARIM SONI ORTDI**

hayrat bilan qichqirishini, qiqirlab kulishini tomosha qilishardi. Erkalatib, shirinliklar bilan siylashardi.

Jiyanchamning bahonasida ular bilan yaqindan tanishib oldik. Kattarog'ining ismi Gasanova Lola Mubaris qizi ekan, shahrimizdagi 44-maktabning 6-«V» sinfidagi tahsil olarkan. Ular asli bakulik bo'lib, dadasining ishi yuzasidan mana 3 yildirki, Toshkentda yashashayotgan ekan. Baku shahrini ham yaxshi ko'risharkan. Lekin poytaxtimiz unga, ham ukalari Faris, Eltong, dugonasi Simzar Agayevalarga juda yoqib qolibdi. Go'zal va maftunkor shahrimizning ta'rif-u tavsifini Bakudagi Navro'z va Maxfir bobolariga hamda Shukufa va Nurida buvionlariga yozib, ado qilolmayotgan emish.

U xalqimizning san'ati va madaniyati bilan ham qiziqarkan. Toshkentdagi dugonalari Sima va Dilfuzalar bilan birgalikda to'garakka qatnab,



bilimi juda kuchli bo'lgan ekan. Shuning uchun men ham qattiqqo'l o'qituvchi bo'lmoqchiman,-deydi dugonam kelajak orzulari haqida gapirib.

Biz oz fursatda xuddi ko'p yillik dugonalardek qadrdonlashib ketdik. Meni uyiga taklif qildi.

– Bormasangiz, qattiq xafa bo'laman,-deya qo'shib qo'yishni ham unutmadi.

Kecha ularnikiga bordim. Onasi Ferida opa eng aziz mehmonlar uchun atalgan bozbash taomini tayyorlabdilar. Suhbatimiz o'z-o'zidan milliy taomlarimizga borib taqaldi. Shunda Lola o'zbek taomlarini juda yoqtirishini, lekin lag'monni hali tatib ko'rmaganini aytib qoldi.

Ziyofat uchun minnatdorchilik bildirib, endi mehmon bo'lish navbati uniki ekanligini eslatib qo'ydim. Kelsa, oyijonim albatta lag'mon pishirib beradilar.

Nargiza AKBAR qizi.

OFTOBIMSIZ, ONAJON!

Men aziz onajonimni charaqlagan oftobga o'xshataman.


Onalarni bejiz oftobga qiyoslamaydilar. Menimcha, ularning tafti oftobnikidan ham issiqroqdir. Mening onam ham doimo menga yaxshi xulqli, odobli bo'l, hech qachon o'zgalarga yomonlik tilama, chiroyli so'zla, shirinsuxan bo'lgin, deya pand-u nasihat qiladilar. Shu o'gitlarini jon qulog'im bilan tinglab, ba'zida ich-ichimdan xursand bo'lib qo'yaman. Dunyoda mening

onamdan ham shirinso'z, mening onamdan ham pazanda ayol bo'lmasa kerak, degim keladi. Ularni yana chaman bo'lib ochilgan nafis va go'zal gullarga o'xshataman. Men nafaqat o'z onamjonim, ko'p yillardan beri odamlarga ma'naviyat ulashish ilinjida faol mehnat qilayotgan Saodat opaga, balki dunyodagi barcha onalarga chiroyli, so'lim gullardan taqdim etгим kelaveradi. Ularning quchoqlari chiroyli gullarga to'la bo'lishini, doimo yuzlaridan tabassum arimasligini ich-ichimdan istayman.


Aziz va mo'tabar onajonlar! Sizlarga nafaqat bayramlarda yoki tug'ilgan kunlaringizda, balki iloji bo'lsa, har kuni, har tong yorishganda guldastalar taqdim etishimiz shart! Axir bizni voyaga yetkazib, kechalari alla aytgan ham, betob bo'lsak, boshimizda parvona bo'lgan ham siz. Biz bu ezguliklaringizga faqat odob-axloqimiz, a'lo o'qishimiz bilan «labbay» deb javob berishimiz kerak deb o'ylayman.

Azamxo'ja ABUBAKIROV,
Toshkent shahridagi, 1-maktabning
7-«B» sinf o'quvchisi.


Yozda tanning rohati,
Xush yoqar harorati.
Qishda bo'lib qolar muz,
Ko'm-ko'k suv to'la...

**TOPISHMOQLAR**

O'zi ikkita pichoq,
Qil o'tmas qalin o'rtoq.
-Nomi neligin ayt-chi?
-Adashmasam, bu...




Semizgina opoqim,
Kiyib olar qalpoq'in.
Hammaga kerak beshak,
Choyxona ko'rki...



So'rilarga osilishar,
Bamisoli mitti sharlar.
Unga qarab o'ynar ko'zim,
Qora, qizil, charos...



O'tkir, uchli tishlari,
G'irillashdir ishlari.
Sochilar ko'plab zarra,
Nomidir uning...



Ranglari qizil juda,
Bodring bilan quda.
Kinoda nomi senyor,
Davomi-chi, ...



Munisa KOMILOVA,
poytaxtdagi 14 - maktabning 6 - «A» sinf o'quvchisi.

TONG
yulduzi

BOSH MUHARRIR:

Umida

ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV

(O'zbekiston Xalq ta'limi vaziri),

Dilbar ALIMJONOVA

(«Sog'lom avlod uchun»

hukumatga qarashli bo'lmagan

xalqaro xayriya jamg'armasi

ijrochi direktori),

Jabbor RAZZOQOV

(«O'zbekiston» NMIU bosh

muharrir o'rinbosari),

Dilmurod RAHMATILLAYEV

(Andijon viloyati Xalq ta'limi

boshqarmasi boshlig'i),

Dilshoda DADAJONOVA

(Namangan viloyati Xalq

ta'limi boshqarmasi boshlig'i),

Feruza JALILOVA

(Bosh muharrir o'rinbosari),

Sobirjon SHARIPOV

(Xorazm viloyati Xalq ta'limi

boshqarmasi boshlig'i),

Nurxon NAFASOV

(O'zbekistonda xizmat

ko'rsatgan sport ustasi),

Ergashvov SARIQOV

(Iqtisod fanlari doktori).

Gazeta O'zbekiston
matbuot va axborot
agentligida

022-raqam bilan 2003-
yil 11-dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir:

«O'zbekiston»

nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston»

nashriyot-matbaa ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib

sahifalandi va chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba

kuni chiqadi. Hajmi A-3,

2 bosma taboq.

Adadi - 17171

Buyurtma N: J 2928

Dizayner va
sahifalovchi:

Fazliddin
SHOYODGOROV

Navbatchi:

Muharrama
PIRMATOVA

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-27-25

144-63-08

Tel./ faks:

(99871) 144-38-10